

Chizma geometriya faniga qiziqtirish

Joriy yilning 8-iyun kuni "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" kafedrasida "Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi" mutaxassisligi magistrantlari hamda kafedra bilan hamkorlikda 1-kurs bakalavr talabalar o'rtasida "Yosh muhandis" viktorinasi chizma geometriya fanidan o'tkazildi. Tadbirni texnika fanlar doktori D.F.Kuchkarova ochib berdi va hozirgi kunda chizmachilik fani o'rni, shartlarni, baholash mezonlarini tushuntirdi. Magistrantlar viktorinada pedagogik mahorat va ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'qituvchilari kafedra mudiri dotsent Nasritdinova, texnika fanlar doktori D.F.Kuchkarovalar qiziqarli 7 ta shartni zamonaviy texnologiya vositalaridan va metodlardan (blits, keys, klaster kabi) metodik usullardan foydalanib olib borishdi.



CHG va MG kafedrasida o'qituvchilari J.Qosimov va A.Urishevlar, kafedra texnika fanlar doktori D.F.Kuchkarova, kafedra mudiri dotsent Nasritdinovalar shartlarni nazorat qilib baholab bordilar. Tadbir so'ngida 3 ta guruhdan g'olib guruh aniqlanib, tashakkurnoma bilan taqdirlandi. Bu kabi tadbirlar Chizma geometriya faniga yanada talabalarning fanga qiziqishini va yangi metodlardan foydalanib interaktiv darslarni o'tishga, magistrantlarda esa pedagogik mahoratni oshirishga yordam beradi. Tadbir qiziqarli va ko'tarinki ruhda o'tkazildi.



TIQXMMI matbuot xizmati